



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzafarov Akmal Axmadovich	



MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Muzafarov Akmal Axmadovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: akmailuz@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada mustaqil turistlar (Free Independent Traveller) oqimini oshirishning ilg'or xorijiy tajribasi tizimli benchmarking usuli orqali o'rganilgan va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari baholangan. Tahlil uchun davlatlar mexanizm bo'yicha kuchli jihatlari va O'zbekistonga moslik darajasi asosida tanlanib, Gruziya, Turkiya, Tailand, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi taklif tomoni, talab tomoni hamda raqamli platforma o'lchovlari bo'yicha qiyoslangan. Taklif tomonida soddalashtirilgan rasmiylashtirish, milliy sifat standarti va platformaga integratsiya, talab tomonida esa soliq qaytarish (tax-free), viza yengilliklari va raqamli xizmatlar asosiy dastaklar sifatida ajratilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil turizm; benchmarking; rasmiylashtirish; sifat standarti; soliq qaytarish; viza liberalizatsiyasi; raqamli platforma; O'zbekiston.

Аннотация. В статье посредством системного метода бенчмаркинга исследован передовой зарубежный опыт увеличения потока самостоятельных туристов (Free Independent Traveller) и оценены возможности его применения в условиях Узбекистана. Для анализа страны были отобраны на основе их сильных сторон в рамках рассматриваемого механизма и степени соответствия условиям Узбекистана. Опыт Грузии, Турции, Таиланда, Эстонии и Южной Кореи был сопоставлен по направлениям предложения, спроса и цифровых платформ. Со стороны предложения в качестве ключевых инструментов выделены упрощённая формализация, национальный стандарт качества и интеграция с платформой, а со стороны спроса — возврат налогов (tax-free), визовые послабления и цифровые сервисы.

Ключевые слова: самостоятельный туризм; бенчмаркинг; формализация; стандарт качества; возврат налогов; визовая либерализация; цифровая платформа; Узбекистан.

Abstract. This article examines international best practices for increasing the flow of Free Independent Travellers (FITs) through a systematic benchmarking approach and evaluates their applicability to the conditions of Uzbekistan. Countries were selected for analysis based on the strengths of their policy mechanisms and their relevance to Uzbekistan. The experiences of Georgia, Türkiye, Thailand, Estonia, and South Korea were compared across three dimensions: supply-side measures, demand-side measures, and digital platforms. On the supply side, simplified formalization procedures, national quality standards, and platform integration were identified as key instruments, while tax-free schemes, visa facilitation, and digital services were highlighted as the main demand-side tools.

Keywords: independent tourism; benchmarking; formalization; quality standard; tax refund; visa liberalization; digital platform; Uzbekistan.

KIRISH

Raqamli band qilish tizimlari va viza rejimlarining liberallasuvi natijasida sayohatni vositachilarsiz tashkil etadigan mustaqil turistlar (Free Independent Traveller) alohida va iqtisodiy jihatdan ahamiyatli segmentga aylandi. Bu toifa xarajatlarning katta qismini bevosita mahalliy mikro va kichik biznesga yo'naltirgani uchun uning bir birlik sarfi hududiy iqtisodiyotda yuqori multiplikativ samara beradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda viza siyosatining yengillashishi va raqamli imkoniyatlarning kengayishi mustaqil turistlar oqimining keskin o'sishiga hissa qo'shdi, biroq bu oqimni barqaror oshirish va uni butun mamlakat bo'ylab yoyish uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar zarur. Jahonning bir qator davlatlari bu boradagi muvaffaqiyatli yechimlarni qo'llab, mustaqil turistlar oqimini sezilarli oshirishga erishgan, shu bois ularning tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.



Xorijiy tajribadan samarali foydalanish, avvalo, uni o'rganishning to'g'ri metodikasiga va tahlil uchun mos davlatlarni tanlashga bog'liq. Ilg'or amaliyotni tizimli o'rganish (benchmarking) isbotlangan yechimlarni aniqlash, yo'l qo'yilgan xatolardan saqlanish va eng yaxshi amaliyotni milliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi. Bunda xorijiy tajriba tasodifiy emas, balki mustaqil turizm mexanizmining uchta o'lchovi — taklif tomoni, talab tomoni va raqamli platforma — bo'yicha tizimli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqsad xorijiy yechimni ko'r-ko'rona ko'chirish emas, zero har bir yechim muayyan institutsional, iqtisodiy va madaniy sharoitda shakllangan; uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib qo'llash talab etiladi. Maqolaning maqsadi — mustaqil turistlar oqimini oshirishning ilg'or xorijiy tajribasini benchmarking usulida o'rganish va undan O'zbekiston sharoitida foydalanishning konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat.

Mustaqil turizmga e'tibor qaratishning iqtisodiy asosi shundaki, bu toifaning xarajat tuzilmasi an'anaviy turpaket iste'molchisidan farqli o'laroq, asosan mahalliy iqtisodiyotga yo'naltiriladi. An'anaviy paketda to'lovning sezilarli qismi vositachilar va xorijiy aviakompaniyalar orqali hududdan tashqariga sizib chiqsa, mustaqil turistning mablag'lari oilaviy mehmonxonalar, mahalliy gidlar va kichik ovqatlanish maskanlari orqali hududda qoladi va multiplikativ samarani kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil turizm muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda turli rakurslarda o'rganilgan, biroq ular yagona, moslashtirishga yo'naltirilgan yondashuvda birlashtirilmagan. Xorijiy adabiyotda destinatsiya raqobatbardoshligi nazariyasi eng puxta ishlab chiqilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. J. Ritchie va G. Crouch turistik destinatsiya raqobatbardoshligini resurslar, qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar va boshqaruv sifatining uyg'un birikuvini sifatida izohlaydi [8], L. Dwyer va C. Kim esa bu g'oyani taklif va talab omillarini birlashtirgan integral model darajasiga ko'taradi [9]. Muallif ushbu modellarni tadqiqotning nazariy tayanchi sifatida qabul qiladi va ulardagi taklif–talab uyg'unligi tamoyilini mustaqil turist segmentiga tatbiq etadi; ayni paytda muallif mazkur modellar umumiy destinatsiya darajasida qurilgani va vositachisiz sayohatchining o'ziga xos ehtiyojlarini alohida ajratmaganini ta'kidlab, ularni mexanizmning uchta aniq o'lchovi — taklif, talab va raqamli platforma — bo'yicha konkretlashtirishni zarur deb hisoblaydi.

Mustaqil va bekpeker turizmining iqtisodiy mohiyati M. Hampton tadqiqotlarida ochib berilgan: u bu segment xarajatlarining asosan mahalliy mikroiqtisodiyotga yo'nalishini va jamoaga asoslangan turizm orqali daromadning hududga qolishini asoslaydi [3]. Muallif ushbu xulosani to'liq qo'llab-quvvatlaydi va uni O'zbekistonning oilaviy mehmonxona hamda homestay amaliyotiga bevosita bog'laydi. Raqamli platformalarning roli G. Zervas, D. Proserpio va J. Byers ishida empirik o'rganilgan bo'lib, ular reyting va sharhlar tizimi ishonchni shakllantirib, ilgari bozorga chiqqan olmagan xizmatlarni rasmiy aylanmaga jalb etishini ko'rsatadi [4]. Muallif bu natijaga tayanadi, biroq platformani shunchaki taqsimlash kanali emas, balki ishonchni miqyoslashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilib, mazkur qarashni rivojlantiradi.

Talab tomonini rag'batlantirishning nazariy asoslari turizm talabini modellashtirish va viza siyosatiga oid tadqiqotlarda yotadi. H. Song va G. Li turizm talabining nisbiy narxga sezgirligini umumlashtiradi [5], E. Neumayer esa viza cheklovlari ikki tomonlama sayohat oqimini sezilarli kamaytirishini empirik isbotlaydi [6]; turizm marketingining tizimli asoslari A. Durovich ishida bayon etilgan [7]. Muallif ushbu manbalardagi narx va viza elastikligiga oid xulosalarni soliq qaytarish (tax-free) hamda viza liberalizatsiyasi dastaklarining samaradorligini asoslashda tayanch sifatida qabul qiladi, ammo ularni O'zbekistonning byudjet va soliq sharoitidan kelib chiqib ehtiyoqkor, bosqichma-bosqich tatbiq etishni taklif qilib, umumiy nazariy qoidadan amaliy moslashtirishga o'tadi. Metodologik jihatdan tadqiqot OECD va UN Tourismning davriy benchmark nashrlariga tayanadi [1; 2]; muallif ularni xalqaro qiyoslash uchun ishonchli metodik asos deb baholaydi.

Mahalliy adabiyotda turizm iqtisodiyoti masalalari salmoqli o'rganilgan. B.Sh. Safarov milliy turizm xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan [10], B.N. Navruz-Zoda turistik hudud raqobatbardoshligi konsepsiyasini asoslagan [11], A. Abdurakhmanova va F. Ahrorov esa Samarqand misolida ekoturizmning mahalliy bandlek va daromadga ta'sirini empirik baholagan [12]. Muallif bu ishlarni O'zbekiston turizmining milliy va hududiy nazariy negizi sifatida yuqori qadrlaydi hamda ulardan mahalliy provayderlarni kuchaytirish g'oyasini o'zlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy usul sifatida sifat-qiyosiy benchmarking qo'llanildi: tanlangan davlatlarning amaliyoti mexanizmning uch o'lchovi bo'yicha tizimli ravishda qiyoslandi. Tahlil uchun davlatlarni tanlashda uchta mezon e'tiborga olindi. Birinchidan, davlat mustaqil va raqamli turizmni rivojlantirishda muayyan yutuqqa erishgan bo'lishi; ikkinchidan, uning O'zbekistonga iqtisodiy darajasi, mintaqaviy joylashuvi, turizm profili yoki islohotlar



bosqichi jihatidan qiyoslanadigan bo'lishi; uchinchi, tanlangan davlatlar birgalikda mexanizmning taklif, talab va platforma kabi barcha o'lchovlarini qamrab olishi. Shu mezonlar asosida Gruziya, Turkiya, Tailand, Estoniya va Janubiy Koreya tanlandi. E'tiborli jihati shundaki, davlatlar Fransiya yoki Ispaniya kabi faqat turizm hajmi bo'yicha yetakchilik mezoni asosida tanlanmadi, chunki tadqiqot uchun xorijiy amaliyotning O'zbekiston sharoitiga mosligi uning mutlaq hajmidan muhimroq hisoblanadi.

Har bir davlat uchun uch guruh ko'rsatkich qaraldi: xalqaro turistlar oqimining umumiy hajmi (bozorning kattaligi), mexanizm bo'yicha qo'llanilgan asosiy chora-tadbirlar (mazmuniy tahlil uchun asos) hamda ularning natijasi va O'zbekiston sharoitiga moslik darajasi. Ma'lumotlar manbai sifatida UN Tourism va OECD kabi xalqaro tashkilotlar nashrlari hamda tegishli davlatlarning milliy statistika agentliklari va turizm ma'muriyatlari hisobotlaridan foydalanildi; turizm siyosatini xalqaro miqyosda qiyoslashda OECDning davriy benchmark nashri metodik tayanch bo'ldi [1; 2]. Tahlilning ayrim cheklovlari ham mavjud: turli davlatlarda "turist" va "tashrif" tushunchalari, hisoblash usullari hamda mustaqil turist ulushini aniqlash metodikasi bir xil emas. Shu bois keltirilgan raqamlar mutlaq aniqlik emas, balki taqqoslash uchun yo'naltiruvchi ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi, asosiy e'tibor esa sonlarning o'ziga emas, qo'llanilgan mexanizmlarning mazmuni va ularning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatiga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tanlangan davlatlarning umumiy tavsifi. Tanlangan har bir davlat muayyan mexanizm o'lchovi bo'yicha namunaviy hisoblanadi. Gruziya O'zbekistonga mintaqaviy va islohot bosqichi jihatidan yaqin komparator bo'lib, 2025-yilda 6,9 million atrofida xalqaro tashrifni qabul qildi; uning kuchli jihati soddalashtirilgan biznesni ro'yxatga olish va viza liberalizatsiyasi orqali taklif tomonini rivojlantirishdir. Turkiya yirik turizm iqtisodiyotiga ega bo'lib, 2025-yilda taxminan 52,8 million xorijiy turist bilan UN Tourism reytingida dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi va uning tajribasi talab tomonida QQSni qaytarish (tax-free) tizimi hamda kuchli marketing bilan ajralib turadi. Tailand mustaqil va bekpeker turizmida jahon yetakchilaridan biri sifatida 2025-yilda 33 million atrofida turistni qabul qildi; bu yerda mahalliy uy mehmonxonalari rasmiylashtirish, viza yengilliklari va rag'bat dasturlari taklif hamda talab tomonini birgalikda harakatga keltiradi. Estoniya raqamli boshqaruv yetakchisi sifatida (2025-yilda umumiy turistlarning 1,95 millioni xorijiy turistlar bo'lgan) e-davlat xizmatlari va raqamli ko'chmanchi vizasi orqali platforma o'lchovida namunaviydir. Janubiy Koreya esa 2025-yilda rekord 18,7 million turist bilan soliq qaytarish, raqamli xizmatlar va madaniyatga asoslangan marketing yo'nalishida talab va platforma o'lchovlarini uyg'unlashtiradi.

Tanlangan davlatlar, ularning oqim hajmi, mexanizm bo'yicha kuchli jihati va O'zbekistonga moslik darajasi 1-jadvalda umumlashtirilgan. Qiyoslash bazasi sifatida O'zbekiston 2025-yilda rekord 11,7 million xorijiy turistni qabul qilgan bo'lsa-da, bu oqimning asosiy qismi qo'shni va MDH davlatlaridan tashkil topgan, mustaqil hamda raqamli segment esa nisbatan rivojlanmagan (1-jadval).

1-jadval
Tahlil uchun tanlangan davlatlar va tanlov mezonlari (2025-yil)

Davlat	Tanlov asosi va kuchli jihati	Oqim hajmi	O'zbekistonga moslik
Gruziya	Mintaqaviy yaqin komparator; soddalashtirilgan rasmiylashtirish, viza liberalizatsiyasi (taklif tomoni)	~6,9 mln	Yuqori
Turkiya	Yirik turizm iqtisodiyoti; QQS qaytarish (tax-free), marketing (talab tomoni)	~52,8 mln	O'rta
Tailand	Mustaqil/bekpeker yetakchi; homestay rasmiylashtirish, viza yengilliklari, rag'bat	~33,0 mln	Yuqori
Estoniya	Raqamli boshqaruv yetakchisi; e-davlat, raqamli ko'chmanchi vizasi (platforma)	~1,95 mln	O'rta
Janubiy Koreya	Soliq qaytarish, raqamli xizmatlar, madaniyat marketingi (talab va platforma)	~18,7 mln	O'rta
O'zbekiston (baza)	Tadqiqot obyekti; oqim asosan mintaqaviy/MDH davlatlaridan	~11,7 mln	—

1-jadvaldan ko'rinadiki, tanlangan davlatlarning kuchli jihatlari xilma-xil: Gruziya va Tailand ko'proq taklif tomonini, Turkiya va Janubiy Koreya talab tomonini, Estoniya esa raqamli platformani namoyish etadi. Bu xilma-xillik tasodifiy emas — davlatlar birgalikda mexanizmning barcha o'lchovlarini qamrab olib, yaxlit tahlil imkonini beradi. Quyida xorijiy amaliyot taklif tomoni va talab tomoni bo'yicha ketma-ket ko'rib chiqiladi.



Qiyoslash bazasi sifatida O'zbekiston o'ziga xos o'rin tutadi. 2025-yilda rekord 11,7 million xorijiy turist qabul qilingan bo'lsa-da, oqimning asosiy qismi Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya va Turkmaniston kabi qo'shni va MDH davlatlaridan tashkil topgan. Bu turistlar ko'pincha individual, chegaraoldi va qarindosh-urug'ni yo'qlash maqsadidagi sayohatchilar bo'lib, turoperator xizmatidan kam foydalanadi, ya'ni amalda mustaqil turist hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori daromadli uzoq xorij va raqamli segment nisbatan rivojlanmagan. Demak, O'zbekistonning vazifasi mavjud yuqori mustaqil oqimni rasmiylashtirish, sifat va raqamli xizmatlar bilan boyitish hamda uzoq xorij segmentini diversifikatsiyalashdan iborat. Aynan shu yo'nalishlarda yuqorida tanlangan davlatlar tajribasi qimmatli saboq beradi: Gruziya va Tailand taklif tomonini, Turkiya va Janubiy Koreya talab tomonini, Estoniya esa raqamli platformani rivojlantirishda namuna bo'ladi.

Taklif tomonini rivojlantirish bo'yicha tajriba. Mustaqil turist o'z sayohatini o'zi rejalashtirgani uchun u ishonadigan, ko'rinadigan va sifatli xizmatlar mavjud bo'lishini talab qiladi. Shu sababli mahalliy mikro xizmat ko'rsatuvchilarni — uy mehmonxonalari, gidlar, mahalliy transport va hunarmandlarni — rasmiy iqtisodiyotga jalb etish va yagona raqamli platformada ko'rinadigan qilish mustaqil oqimni oshirishning dastlabki sharti hisoblanadi. Ishonchli taklif bazasi bo'lmasa, talab tomonidagi har qanday rag'bat ham samarasiz qoladi. Xorijiy amaliyot bu vazifani uch bosqichda hal etadi: rasmiylashtirish, sifat standarti va platformaga integratsiya.

Birinci bosqich — mikro xizmat ko'rsatuvchilarni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish. Asosiy muammo shundaki, ko'plab mayda provayderlar ro'yxatdan o'tishni murakkab, qimmat yoki foydasiz deb hisoblab, norasmiy faoliyat yuritadi, bu esa ularni statistik hisobdan, sifat nazoratidan va platforma imkoniyatlaridan chetda qoldiradi. Gruziya bu muammoni ma'muriy to'siqni keskin kamaytirish orqali hal etadi: yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish to'liq raqamli tarzda va odatda bir kun ichida amalga oshiriladi, kichik biznes maqomi esa yillik aylanmasi 500 ming GELdan oshmaydigan tadbirkorlar uchun atigi bir foizlik aylanma solig'ini nazarda tutadi. Bunday past to'siq va rag'batlantiruvchi soliq rejimi rasmiylashtirishni norasmiy faoliyatdan ko'ra jozibadorroq qiladi. Estoniya rasmiylashtirishni to'liq raqamli muhitga ko'chirgan: e-Business Register tizimi orqali tadbirkor kompaniyani onlayn, bir necha daqiqa yoki soat ichida, notariusga bormasdan ro'yxatdan o'tkazishi mumkin, e-Residency dasturi esa chet ellik tadbirkorga ham yuz foiz masofaviy ro'yxatdan o'tish imkonini beradi. Ikkala model bir umumiy tamoyilni ko'rsatadi: rasmiylashtirish qanchalik arzon, tez va sodda bo'lsa, mikro provayderlar shunchalik faol rasmiy iqtisodiyotga qo'shiladi.

Soddalashtirilgan rasmiylashtirishning ahamiyatini norasmiylik tuzog'i orqali tushuntirish mumkin. Ro'yxatdan o'tish murakkab, qimmat yoki foydasiz bo'lganida, mayda provayder norasmiy qolishni oqilona tanlov deb biladi; norasmiy qolgani sababli u platforma, kredit va davlat qo'llab-quvvatlovidan mahrum bo'ladi, bu esa uni yanada norasmiylikka qaytaradi — shu tariqa o'zini o'zi kuchaytiruvchi tuzoq yuzaga keladi. Gruziya va Estoniya tajribasi bu tuzoqni rasmiylashtirishning narxi va vaqtini keskin kamaytirish hamda rasmiy maqomga aniq imtiyozlar (past soliq, platformaga kirish, ishonch belgisi) birlashtirish orqali buzadi. Natijada rasmiylashtirish majburiyat emas, balki foydali tanlovga aylanadi va mayda provayderlar ommaviy ravishda rasmiy maydonga o'tadi. O'zbekiston uchun bu saboq ayniqsa qimmatli, zero tarixiy shaharlardagi ko'plab oilaviy mehmonxona va xizmatlar aynan shu tuzoq tufayli rasmiy aylanmadan tashqarida qolmoqda.

Ikkinchi bosqich — rasmiylashtirilgan provayderlarning sifatini kafolatlash va uni tashqaridan tekshiriladigan qilish. Mustaqil turist xizmat sifatini oldindan to'liq bilolmaydi, bu axborot assimetriyasi ishonchsizlik keltirib chiqaradi va sifatli mayda provayderlarni ham bozorda ko'rinmas qoldiradi. Tailandning "Homestay Standard Thailand" tizimi bu muammoni milliy sertifikatlash orqali hal etadi: Turizm va sport vazirligi uy mehmonxonalarni o'nta toifa bo'yicha o'ttiz bitta ko'rsatkich asosida baholaydi va sertifikatlaydi, ro'yxatdan o'tish hamda quvvat chegarasi (ko'pi bilan to'rt xona va yigirma mehmon) kabi talablar belgilanadi. Bunday standart bir vaqtning o'zida ikki vazifani bajaradi: turist uchun sifat kafolati va ishonch belgisi bo'lib xizmat qiladi hamda mayda provayderni o'z xizmatini ma'lum darajaga yetkazishga undaydi. Bu tizim jamiyatga asoslangan turizm (community-based tourism) bilan uzviy bog'liq bo'lib, mahalliy aholini turizm daromadidan bevosita bahramand qiladi va mustaqil turist izlaydigan o'ziga xos, mahalliy tajribani shakllantiradi [3].

Uchinchi bosqich — rasmiylashtirilgan va sifati tasdiqlangan provayderlarni raqamli platformaga ulash, ya'ni ularni talab bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lash. Rasmiylashtirish va sifat standarti, agar provayder turistga ko'rinmasa, to'liq samara bermaydi; platforma esa aynan shu ko'rinishni ta'minlaydi. Zamonaviy platformalar mayda xizmat ko'rsatuvchilar uchun reyting va sharhlar tizimi orqali ishonchni shakllantiradi va ilgari bozorga chiqqan olmagan uy-joy hamda xizmatlarni rasmiy aylanmaga jalb etadi [4]. Estoniyaning yaxlit e-davlat ekotizimi xizmat ko'rsatuvchini ro'yxatdan o'tishdan to'lov gacha bo'lgan barcha bosqichda raqamli muhitda saqlab, uni platformalarga ulanishga tayyor holatda shakllantiradi. Tailand esa 2025-yilda milliy darajada naqdsiz turizm platformasini joriy etib, sertifikatlangan mehmon uyi va mahalliy xizmatlarni yagona raqamli tizimda ko'rinadigan qildi. Bu amaliyot platforma shunchaki texnologik vosita emas, balki taklif va talabni uchrashtiradigan, ishonchni miqyoslashtiruvchi institutsional mexanizm ekanini ko'rsatadi. Taklif tomoni bo'yicha xorijiy amaliyot 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadval).



Davlat	Rasmiylashtirish va ro'yxatga olish	Sifat standarti va verifikatsiya	Platformaga integratsiya
Gruziya	Yakka tadbirkor (IE) ro'yxati to'liq raqamli, ~1 kunda; kichik biznes maqomida 1% aylanma solig'i	Past ma'muriy to'siq va rag'batlantiruvchi soliq rejimi rasmiylashtirishni jozibador qiladi	Soddalashtirilgan rejim mikro provayderlarni rasmiy aylanma va onlayn platformalarga jalb etadi
Tailand	Homestaylar Turizm departamentida ro'yxatdan o'tadi; quvvat chegarasi (4 xona/20 mehmon)	"Homestay Standard Thailand": 10 toifa, 31 ko'rsatkich; jamoaga asoslangan turizm (CBT)	Milliy sertifikat belgisi va 2025-yilgi naqdsiz turizm platformasi ishonch beradi
Estoniya	e-Business Register orqali onlayn ro'yxat (daqiqa/soatlarda); e-Residency (100% masofaviy)	Raqamli identifikatsiya va shaffof, ochiq reyestr ma'lumotni tekshiriladigan qiladi	Yaxlit e-davlat ekotizimi provayderni raqamli platformalarga ulanishga tayyorlaydi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil turizm muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda turli rakurslarda o'rganilgan, biroq ular yagona, moslashtirishga yo'naltirilgan yondashuvda birlashtirilmagan. Xorijiy adabiyotda destinatsiya raqobatbardoshligi nazariyasi eng puxta ishlab chiqilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. J. Ritchie va G. Crouch turistik destinatsiya raqobatbardoshligini resurslar, qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar va boshqaruv sifatining uyg'un birikuvi sifatida izohlaydi [8], L. Dwyer va C. Kim esa bu g'oyani taklif va talab omillarini birlashtirgan integral model darajasiga ko'taradi [9]. Muallif ushbu modellarni tadqiqotning nazariy tayanchi sifatida qabul qiladi va ulardagi taklif–talab uyg'unligi tamoyilini mustaqil turist segmentiga tatbiq etadi; ayni paytda muallif mazkur modellar umumiy destinatsiya darajasida qurilgani va vositachisiz sayohatchining o'ziga xos ehtiyojlarini alohida ajratmaganini ta'kidlab, ularni mexanizmning uchta aniq o'lchovi – taklif, talab va raqamli platforma bo'yicha konkretlashtirishni zarur deb hisoblaydi.

Mustaqil va beqpeker turizmining iqtisodiy mohiyati M. Hampton tadqiqotlarida ochib berilgan: u bu segment xarajatlarning asosan mahalliy mikroiktisodiyotga yo'nalishini va jamoaga asoslangan turizm orqali daromadning hududda qolishini asoslaydi [3]. Muallif ushbu xulosani to'liq qo'llab-quvvatlaydi va uni O'zbekistonning oilaviy mehmonxona hamda homestay amaliyotiga bevosita bog'laydi. Raqamli platformalarning roli G. Zervas, D. Proserpio va J. Byers ishida empirik o'rganilgan bo'lib, ular reyting va sharhlar tizimi ishonchni shakllantirib, ilgari bozorga chiqa olmagan xizmatlarni rasmiy aylanmaga jalb etishini ko'rsatadi [4]. Muallif bu natijaga tayanadi, biroq platformani shunchaki taqsimlash kanali emas, balki ishonchni miqyoslashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilib, mazkur qarashni rivojlantiradi.

Talab tomonini rag'batlantirishning nazariy asoslari turizm talabini modellashtirish va viza siyosatiga oid tadqiqotlarda yotadi. H. Song va G. Li turizm talabining nisbiy narxga sezgirligini umumlashtiradi [5], E. Neumayer esa viza cheklovlari ikki tomonlama sayohat oqimini sezilarli kamaytirishini empirik isbotlaydi [6]; turizm marketingining tizimli asoslari A. Durovich ishida bayon etilgan [7]. Muallif ushbu manbalardagi narx va viza elastikligiga oid xulosalarni soliq qaytarish (tax-free) hamda viza liberalizatsiyasi dastaklarining samaradorligini asoslashda tayanch sifatida qabul qiladi, ammo ularni O'zbekistonning byudjet va soliq sharoitidan kelib chiqib, ehtiyotkor, bosqichma-bosqich tatbiq etishni taklif qilib, umumiy nazariy qoidadan amaliy moslashtirishga o'tadi. Metodologik jihatdan tadqiqot OECD va UN Tourismning davriy benchmark nashrlariga tayanadi [1; 2]; muallif ularni xalqaro qiyoslash uchun ishonchli metodik asos deb baholaydi.

Mahalliy adabiyotda turizm iqtisodiyoti masalalari salmoqli o'rganilgan. B.Sh. Safarov milliy turizm xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan [10], B.N. Navruz-Zoda turistik hudud raqobatbardoshligi konsepsiyasini asoslagan [11], A. Abdurakhmanova va F. Ahrorov esa Samarqand misolida ekoturizmning mahalliy bandlik va daromadga ta'sirini empirik baholagan [12]. Muallif bu ishlarni O'zbekiston turizmining milliy va hududiy nazariy negizi sifatida yuqori qadrlaydi hamda ulardan mahalliy provayderlarni kuchaytirish g'oyasini o'zlashtiradi.

Tadqiqotda asosiy usul sifatida sifat-qiyosiy benchmarking qo'llanildi: tanlangan davlatlarning amaliyoti mexanizmning uch o'lchovi bo'yicha tizimli ravishda qiyoslandi. Tahlil uchun davlatlarni tanlashda uchta mezon e'tiborga olindi. Birinchidan, davlat mustaqil va raqamli turizmni rivojlantirishda muayyan yutuqqa erishgan bo'lishi; ikkinchidan, uning O'zbekistonga iqtisodiy darajasi, mintaqaviy joylashuvi, turizm profili yoki islohotlar bosqichi jihatidan qiyoslanadigan bo'lishi; uchinchi, tanlangan davlatlar birgalikda mexanizmning taklif, talab va platforma kabi barcha o'lchovlarini qamrab olishi. Shu mezonlar asosida Gruziya, Turkiya, Tailand, Estoniya va Janubiy Koreya tanlandi. E'tiborli jihati shundaki, davlatlar Fransiya yoki Ispaniya kabi faqat turizm



hajmi bo'yicha yetakchilik mezoni asosida tanlanmadi, chunki tadqiqot uchun xorijiy amaliyotning O'zbekiston sharoitiga mosligi uning mutlaq hajmidan muhimroq hisoblanadi.

Har bir davlat uchun uch guruh ko'rsatkich qaraldi: xalqaro turistlar oqimining umumiy hajmi (bozorning kattaligi), mexanizm bo'yicha qo'llanilgan asosiy chora-tadbirlar (mazmuniy tahlil uchun asos) hamda ularning natijasi va O'zbekiston sharoitiga moslik darajasi. Ma'lumotlar manbai sifatida UN Tourism va OECD kabi xalqaro tashkilotlar nashrlari hamda tegishli davlatlarning milliy statistika agentliklari va turizm ma'muriyatlari hisobotlaridan foydalanildi; turizm siyosatini xalqaro miqyosda qiyoslashda OECDning davriy benchmark nashri metodik tayanch bo'ldi [1; 2]. Tahlilning ayrim cheklovlari ham mavjud: turli davlatlarda "turist" va "tashrif" tushunchalari, hisoblash usullari hamda mustaqil turist ulushini aniqlash metodikasi bir xil emas. Shu bois keltirilgan raqamlar mutlaq aniqlik emas, balki taqqoslash uchun yo'naltiruvchi ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi, asosiy e'tibor esa sonlarning o'ziga emas, qo'llanilgan mexanizmlarning mazmuni va ularning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatiga qaratildi (3-jadval).

3-jadval
Talab tomonini rag'batlantirish bo'yicha xorijiy amaliyot

Davlat	Soliq/QQS qaytarish (tax-free)	Kirish va sayohatni osonlashtirish	Raqamli to'lov va xizmatlar
Turkiya	QQS 20%; turistga ~10,5–12,5% qaytariladi (kartaga)	e-Viza (onlayn, daqiqalarda); kuchli aviabog'lanish	Tax-free operatorlar; kartaga avtomatik qaytarish
Janubiy Koreya	darhol do'konda yoki kioskda (min. 15 000 von)	K-ETA elektron sayohat ruxsati (onlayn)	Keng raqamli kiosk tarmog'i; shahar markazida qaytarish
Tailand	2025-yil ko'p valyutali QQS qaytarish (raqamli hamyon orqali ham)	Vizadan ozod rejim (93 davlat, 60 kun); TDAC e-forma	2025-yil milliy naqdsiz (cashless) turizm platformasi

3-jadval uch dastakning bir maqsadga – turistni jalb etish va uning xarajatini oshirishga – xizmat qilishini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu tajribaning ayrim elementlari allaqachon dolzarb: mamlakat so'nggi yillarda viza rejimini sezilarli liberallashtirgan, bu esa mustaqil oqimning keskin o'sishiga hissa qo'shgan. Keyingi bosqichda soliq qaytarish tizimini joriy etish va raqamli to'lov infratuzilmasini kengaytirish turist xarajatini oshirishning samarali vositasi bo'lishi mumkin, ammo bu dastaklar byudjet va soliq tizimiga bevosita bog'liq bo'lgani uchun moliyaviy ta'siri ehtiyotkorona baholanishi lozim.

Raqamli platforma o'lchovi taklif va talab tomonini o'zaro bog'lovchi uchinchi, integratsion qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Estoniyaning e-davlat ekotizimi xizmat ko'rsatuvchini ro'yxatdan to'lovgacha bo'lgan barcha bosqichda yagona raqamli muhitda saqlasa, Tailandning 2025-yilgi naqdsiz turizm platformasi sertifikatlangan provayder va turistni bir maydonda uchrashtirib, bron va to'lovni soddalashtiradi, Janubiy Koreyaning kiosk tarmog'i esa soliq qaytarishni avtomatlashtiradi. Bu yechimlarning umumiy mantig'i – platformani shunchaki texnologik vosita emas, balki ishonchni miqyoslashtiruvchi va bitim xarajatlarini kamaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida qurish. Mustaqil turist sayohatining katta qismini onlayn rejalashtirgani va to'lovni raqamli vositalar bilan amalga oshirgani uchun aynan shu o'lcham oqimning kengayishini ko'p jihatdan belgilaydi: taklif qanchalik ishonchli va talab qanchalik rag'batlantirilgan bo'lmasin, ular raqamli maydonda ko'rinmas va ulanmagan bo'lsa, mustaqil oqim to'liq ro'yobga chiqmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada mustaqil turistlar oqimini oshirishning ilg'or xorijiy tajribasi benchmarking usulida o'rganildi va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi. Birinchidan, xorijiy tajribani tizimli o'rganish metodikasi ishlab chiqilib, davlatlar mexanizm bo'yicha kuchli jihatlari va O'zbekistonga moslik darajasi asosida tanlandi, tahlil esa mustaqil oqimni oshirish taklif va talab tomonidagi ikki o'zaro bog'liq mexanizm orqali amalga oshirilishini ko'rsatdi. Ikkinchidan, taklif tomonidagi mexanizm mikro xizmat ko'rsatuvchilarni soddada tartibda rasmiylashtirish, sifat standartlarini joriy etish va platformaga integratsiya qilishni o'z ichiga oladi; Gruziya, Tailand va Estoniya tajribasi bu mexanizm ishonchli va ko'rinadigan xizmat bazasini yaratishini tasdiqladi. Uchinchidan, talab tomonidagi mexanizm soliq qaytarish, viza yengilliklari va raqamli xizmatlar orqali turistni jalb etish va uning xarajatini oshirishga qaratilgan; Turkiya, Janubiy Koreya va Tailand tajribasi bu choralar oqim va sarfni sezilarli oshirishini ko'rsatdi. To'rtinchidan, taklif va talab mexanizmlari faqat birgalikda qo'llanilgandagina kutilgan natijani beradi. Beshinchidan, xorijiy mexanizmlar O'zbekistonga bevosita emas, balki institutsional, byudjet va raqamli sharoitlarni hisobga oluvchi moslashtirish filtri orqali tatbiq etilishi lozim; viza liberalizatsiyasi allaqachon yuqori samara bergan, rasmiylashtirish, tax-free tizimi va raqamli to'lov esa o'rta muddatli istiqbolda ehtiyotkor moslashtirishni talab etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. *OECD Tourism Trends and Policies 2024*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 353 p.
2. UN Tourism (UNWTO). *World Tourism Barometer*. — Vol. 23, Issue 2. — Madrid: World Tourism Organization, 2025.
3. Hampton M.P. Backpacker tourism and economic development // *Annals of Tourism Research*. — 1998. — Vol. 25, № 3. — P. 639–660.
4. Zervas G., Proserpio D., Byers J.W. The rise of the sharing economy: estimating the impact of Airbnb on the hotel industry // *Journal of Marketing Research*. — 2017. — Vol. 54, № 5. — P. 687–705.
5. Song H., Li G. Tourism demand modelling and forecasting: a review of recent research // *Tourism Management*. — 2008. — Vol. 29, № 2. — P. 203–220.
6. Neumayer E. Visa restrictions and bilateral travel // *The Professional Geographer*. — 2010. — Vol. 62, № 2. — P. 171–181.
7. Дурович А.П. Маркетинг в туризме: учеб. пособие. — Минск: Новое знание, 2003. — 496 с.
8. Ritchie J.R.B., Crouch G.I. *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. — Wallingford: CABI, 2003. — 256 p.
9. Dwyer L., Kim C. Destination competitiveness: determinants and indicators // *Current Issues in Tourism*. — 2003. — Vol. 6, № 5. — P. 369–414.
10. Safarov B.Sh. *Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari*. — T.: Fan va texnologiya, 2016. — 184 b.
11. Navruz-Zoda B.N. *Turistik hudud raqobatbardoshligi: monografiya*. — Buxoro, 2017. — 150 b.
12. Abdurakhmanova A., Ahrorov F. The economic and social impacts of ecotourism on local employment and income: a case study of rural Samarkand, Uzbekistan // *Regional Science Policy & Practice*. — 2025. — Vol. 17, № 3. — Art. 100180.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>